

## **SO‘ZLARNING MA‘NOLARINI O‘RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

**International school of finance technology and science institute**

**Psixologiya va pedagogika kafedrası o‘qituvchisi**

**Baqoyeva Zarina Rayimovna**

**Telefon:+(99890) 062-81-82.**

**[zbakaeva69@gmail.com](mailto:zbakaeva69@gmail.com)**

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma‘naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iborat, chunki yurtimizning kelajagi, istiqboli, birinchi navbatda, yoshlar tarbiyasiga, ularni sog‘lom qilib o‘stirishga, milliy g‘oya, milliy mafkura va o‘z vataniga sadoqat ruhida tarbiyalashga bog‘liq.

O‘qitishda yangi pedagogik, innovatsion, interfaol texnologiyalariga asoslangan ta‘lim an‘anaviy ta‘limga qaraganda ancha yuqori samara berishi, mazkur texnologiyalar talabalarning bilish imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishi, ularning mustaqil fikr yuritishini tashkil etishda samara berishi o‘z isbotini topmoqda.

Interfaol metodlardan foydalanish ta‘lim mazmunining barcha (bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat) komponentlarini o‘zlashtirishga ijobiy ta‘sir etadi. Ular talabalarni tilshunoslik fanlari uchun juda muhim bo‘lgan holatlar, ya‘ni mustaqil muammoni ko‘rish, uni ifodalash, yechish yo‘llarini topishga imkoniyat beradi. Tilshunoslikka doir ilmlar silsilasida leksikologiya maxsus o‘rin tutadi. Leksikologiya muayyan tilning so‘z zahirasidir. Shu til zahirasidagi barcha so‘zlarning toifalarini farqlash, har toifa ichidan guruhlarni ajratish, har bir guruh ichidagi shahobchalarni farqlash, ularning shakllarini ajratishdan har bir so‘zning shakligacha aniqlash, shakldosh so‘zlarni farqlashdan maqsad ularning ma‘nolarini aniqlash, ular bildirgan ma‘noning asl va tub tomirlariga yetib boruvchi tadqiqot o‘tkazish, ushbu tadqiqotlarni umumlashtirish, tahlil natijalarini izchil ilmiy bayon qilish, ushbu fanning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Leksikologiya har bir so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar b-n bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so‘zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir.

Leksikologiyada so‘zlarning ma‘no jihatdan o‘zaro bog‘langan, ya‘ni monosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, so‘z ma‘nolarining erkin yoki bog‘liq holda bo‘lishi kabi masalalari ham o‘rganiladi. So‘z ma‘nosini o‘rganish tilshunoslik uchun

asos, poydevor qimmatiga ega. Shuning uchun ham soʻz maʼnosini tadqiq etish qadim-qadimlarga borib taqaladi. Bu semasiologik tadqiqot ishlarining boshi juda koʻhna ekanligini koʻrsatadi.


Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat koʻnikma, malakalariga ega boʻlishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat koʻnikma, malakalarini oʻzlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega boʻlishlari talab etiladi<sup>1</sup>. Oʻz mohiyatiga koʻra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat koʻnikma, malakalarining oʻzlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Yangi gʻoyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.

Pedagog oʻqitish va tarbiyalashga oid oʻz konsepsiyasi yo metodikasini yaratadi. Oʻqituvchi taʼlim jarayonida innovatsion taʼlim texnologiyalari yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, oʻz-oʻzini nazorat, oʻz-oʻzini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, oʻz nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq boʻladi. Eng muhimi, innovatsion taʼlim texnologiyalarini qoʻllash orqali oʻqituvchi talabalarning aniq taʼlimiy maqsadga erishish yoʻlida oʻzaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qoʻlga kiritadi. Oʻqituvchi taʼlim jarayonida innovatsion taʼlim texnologiyalari yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, oʻz-oʻzini nazorat, oʻz-oʻzini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, oʻz nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq boʻladi. Ushbu oʻrinda oʻqituvchi dars jarayonida foydalanishi mumkin boʻlgan innovatsion texnologiyalarni koʻrsatib oʻtamiz:

---

<sup>1</sup>Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat / S.A.Madiyarova va b. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009.

## BBBjadvali



### BBB jadvali uchun talabalardan yig'ilgan so'zlar

Lison, nutq, til, leksema, lisoniy paradigma, lisoniy ziddiyat, sinonim, antonim, omonim, partonimiya, graduonimiya, giponimiya, tur-jins munosabati, giperonim, giponim, neytral leksika, leksikologiya, leksikografiya

### “Leksikologiya” moduliga doir BBB jadvali

<b>Bilaman</b>	<b>Bildim</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>
<b>til</b>	lison	leksema
<b>nutq</b>	giperonim	lisoniy paradigma
<b>sinonim</b>	graduonimiya	lisoniy ziddiyat
<b>antonim</b>	giponim	neytral leksika
<b>omonim</b>	leksikologiya	leksikografiya
<b>tur-jins munosabati</b>	giponimiya	partonimiya

O'qitishda yangi pedagogik, innovatsion, interfaol texnologiyalariga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limga qaraganda ancha yuqori samara berishi, mazkur texnologiyalar talabalarning bilish imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishi, ularning mustaqil fikr yuritishini tashkil etishda samara berishi o'z isbotini topmoqda.

### Foydalanilgan adbiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakul'teti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004. – 44 b.
3. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. -T.: O'qituvchi, 1995.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009.